
FVV va Milliy gvardiyaning favqulodda vaziyatlarning oldini olishdagi hamkorligi



Mamlakatimizda aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish bo‘yicha samarali tadbirlar qilinmoqda.

Yong‘inlarga qarshi kurashish bo‘yicha mukammal tizim shakllantirilib, ushbu sohada moddiy-texnik bazani mustahkamlash izchil davom ettirilmoqda. Xususan, yong‘in va avariya-qutqaruv texnikalarini ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratilayapti.

Shu bilan birga favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda samaradorlikni oshirish muhim masalaga aylanmoqda. Bu jarayonda xorijiy tajribani o‘rganish va amaliyotga joriy etishni zamonning o‘zi talab qilmoqda.





Bugungi kunda O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlarini takomillashtirish uchun muammolarni aniqlash, bartaraf etish, xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda ijobiy jihatlarini milliy qonunchilikka qo‘llash zarur.

So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi natijasida dunyoning turli mintaqalarida tabiiy ofatlar yuz berib, minglab odamlarning uylariga zarar yetkazib, hayot muvozanatini buzmoqda. Tarixga nazar tashlasak, 1821–1822-yillari Buxoro va Samarqand yaqinida hamda 1966-yil Toshkent shahrida talofatli zilzila bo‘lib o‘tgan.

So‘nggi 150 yil mobaynida zilzila tufayli dunyo bo‘yicha umumiy qurbon bo‘lgan odamlarning soni 2 mln 300 mingdan ortgan[1]. Shuningdek, Xitoyning Shansi viloyatida 2023-yil 18-iyunda sodir bo‘lgan kuchli suv toshqini oqibatida bir milliondan ortiq aholi jabrlandi, 600 kishi qurbon bo‘ldi[2].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 10-apreldagi “Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4276-qarori fikrimiz tasdig‘idir.



[1] Qurbonov J.M., Mamarasulov Z.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, SamISI, 5-bet.
[2] https://www.currenttime.tv/a/china-earthquake/32736652.html.

Jahon hamjamiyati shu kabi holatlarning oldini olish maqsadida 2005-yilning yanvar oyida Yaponiyaning Kobi shahrida bo‘lib o‘tgan tabiiy ofatlar tahlikasini kamaytirishga qaratilgan anjumanda “Xuog”[3] deklaratsiyasini qabul qildi. Mazkur deklaratsiyaga binoan davlatlar 2005 – 2015-yillarda aholi uchun tabiiy ofatlar oqibatini kamaytirish choralarini ko‘rgan.

Yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotlardan kelib chiqib, bugungi kunda O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda davlat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik muhimdir. Ayniqsa, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmini takomillashtirish strategik ahamiyatga ega. Chunki ushbu ikki tuzilma aholi xavfsizligini ta’minlash va ofatlarning oqibatlarini kamaytirish borasida bir-birini to‘ldiruvchi vazifalarni bajaradi.

FIKRIMIZCHA, MAZKUR TASHKILOTLAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISHNING DOLZARBLIGIGA QUYIDAGI OMILLARNI KELTIRISH MAQSADGA MUVOFIQ. BULARGA:

a) ofatlarning oldini olishda tizimli yondashuvni shakllantirish – bunda FVV tabiiy, texnogen va ijtimoiy xavflarni monitoring qilish va oldini olish bo‘yicha mas’ul tuzilma hisoblanadi. Milliy gvardiya esa favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash, aholini evakuatsiya qilish va strategik obyektlarni muhofaza qilish vazifalarini bajaradi. Bu ikki tuzilmaning vazifalari bir-birini to‘ldirgani bois idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur;

b) davlat xavfsizligi va milliy barqarorlikni ta’minlash – tabiiy ofatlar, texnogen avariyalar yoki terrorizm tahdidlari yuzaga kelganda Milliy gvardiya va FVVning birgalikda harakat qilishi xatarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, idoralararo shtablarni yaratish va ularning ishlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur;

d) axborot almashinuvi va operativ munosabat mexanizmlarini takomillashtirish – hozirgi kunda FVV va Milliy gvardiya o‘rtasida avtomatlashtirilgan raqamli axborot almashinuvi tizimi mavjud emas. AQSh, Germaniya va Fransiya tajribalari shuni ko‘rsatadiki, favqulodda vaziyatlarda davlat tashkilotlari o‘rtasida yaxlit raqamli platforma orqali ma’lumot almashinuvi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ham shunday tizimni joriy etish Milliy gvardiya va FVV o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, favqulodda vaziyatlarning oldini olish samaradorligini oshiradi.



[3] Xuog deklaratsiyasi // https://www.un.org/ru.

Mazkur omillardan kelib chiqib, O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlarning oldini olishda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari o‘rasidagi hamkorlikni takomillashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan quyidagi muammolarni sanab o‘tish mumkin. Bularga:

birinchidan, tashkiliy-huquqiy muammolar – mamlakatda favqulodda vaziyatlarga oid qonun hujjatlari tarqoq holda bo‘lib, yagona Favqulodda vaziyatlar kodeksi ishlab chiqish orqali tizimlashtirilmagan. Shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasidagi vakolatlar aniq taqsimlanmagan hamda milliy qonunchilik xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilmagan;

ikkinchidan, texnik va infratuzilmaviy muammolar – mamlakatda tabiiy ofatlar monitoringini kuchaytirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy qilinishi cheklangan. Shuningdek, milliy gvardiyaning favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga mo‘ljallangan maxsus texnika va jihozlari yetarli emas. Shu bilan birga sug‘orish va irrigatsiya tizimlarining eskirganligi mamlakatda suv toshqinlari xavfining oshishiga sabab bo‘ladi;

uchinchidan, kadrlar tayyorlash va xalqaro tajriba bilan integratsiyalash muammolari – mamlakatda favqulodda vaziyatlarning oldini olish tizimida ishlovchi xodimlarning malakasini oshirish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yetarlicha kuchaytirilmagan, favqulodda vaziyatlarning oldini olishga oid milliy ta’lim dasturlari va simulyatsiya mashg‘ulotlari cheklangan holda o‘tkaziladi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya xodimlari o‘rtasida hamkorlik va tajriba almashinuvi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Bugungi globallashuv davrida tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etishda davlatlar samarali boshqaruv tizimlarini yaratishga katta e’tibor qaratishmoqda. Ayniqsa, Yevropa ittifoqi, AQSh va Yaponiyada favqulodda holatlarning oldini olish, xavflarni kamaytirish va aholi xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy tizimlar joriy etilgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasida hamkorlikni takomillashtirish va xatarlarning oldini olish maqsadida xalqaro tajribani o‘rganish va milliy qonunchilikka singdirish zarur.

Yaponiya tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo‘yicha dunyodagi rivojlangan tizimlardan birini joriy etgan. Mamlakatda **Kobe doiraviy dasturi** (“Kobe Framework”) asosida xavflarni boshqarish strategiyalari ishlab chiqilgan. Ushbu strategiya asosida Yaponiyada favqulodda vaziyatlarni boshqarishning quyidagi asosiy xususiyatlari belgilangan:

- 2005-yilda qabul qilingan bu dastur tabiiy ofatlarga tayyorgarlik va javob berish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan;
- har bir davlat tashkiloti uchun favqulodda vaziyatlarda harakatlar algoritmi ishlab chiqilgan;
- hududiy xatarlarni baholash va mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan;
- har yili Kobe shahrida va viloyatlarda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik bo‘yicha simulyatsiya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi;
- maktablar, davlat tashkilotlari va hukumat organlari favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha muntazam o‘quv mashg‘ulotlaridan o‘tadi. Shuningdek, Yaponiyada har bir fuqaro uchun maxsus “Ofatlardan himoya qilish” davlat dasturi ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, tabiiy ofatlar xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda axborot almashinuvi uchun maxsus markazlar tashkil etilgan. Shuningdek, geoinformatsion texnologiyalardan foydalangan holda xavfli zonalar xaritasi yaratiladi va muntazam yangilab boriladi. Yaponiyada 1961-yil 15-noyabrda qabul qilingan “Tabiiy ofatlarga qarshi kurashish” (“Disaster Countermeasures Basic Act”) qonuni mamlakatda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va boshqarish uchun institutsional asoslarni belgilaydi. U markaziy va mahalliy darajadagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish kengashlarining tashkiliy tuzilmasi, vazifalari, vakolatlari va majburiyatlarini aniq belgilaydi[4]. Shuningdek, qonun favqulodda vaziyatlarning oldini olish rejalarini ishlab chiqish, favqulodda holatlar va tiklanish choralarini amalga oshirishni tartibga soladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida esa favqulodda vaziyatlarning oldini olishning asosiy organi “Federal Emergency Management Agency” (FEMA) hisoblanadi. Ushbu agentlik tabiiy ofatlar, texnogen avariyalar va milliy xavfsizlik tahdidlarining oldini olishda yetakchi organdir. FEMA tizimining asosiy xususiyati favqulodda vaziyatlar yuz bergan hududda mas’ul markazlar tashkil etishga qaratilgan.

FEMA favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish uchun dronlar, sun’iy intellekt va sputnik texnologiyalaridan foydalanib, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rishda xavfli zonalarni aniqlaydi.

Bundan tashqari, AQShda favqulodda vaziyatlar paytida ma’lumotlar almashinuvini tezkor va avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshiradigan “National Emergency Management Information System” (NEMIS) tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur tizim tabiiy ofatlar paytida hududiy xatarlarni baholash va ularning oldini olish jarayonlarini muvofiqlashtiradi[5].

Yevropa ittifoqida favqulodda vaziyatlarni boshqarish “Union Civil Protection Mechanism” (UCPM) markazi orqali amalga oshiriladi. Bu markaz Yevropa davlatlari o‘rtasida favqulodda holatlarning oldini olishni muvofiqlashtirishga qaratilgan. “Union Civil Protection Mechanism” markazi tabiiy ofatlar va texnogen avariyalar paytida barcha davlatlarni birgalikda harakat qilishga undaydi.

Yaponiya, AQSh va Yevropa ittifoqining favqulodda vaziyatlarda hamkorlik munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha ilg‘or tajribalaridan kelib chiqib, tashkiliy-huquqiy, texnik-infratuzilmaviy hamda kadrlar tayyorlash va xalqaro tajriba bilan integratsiyalash muammolarini bartaraf etish yuzasidan quyidagi ilmiy takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, tashkiliy-huquqiy muammolarni hal etish bo‘yicha takliflar:

a) bugungi kunda O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlarga oid qonunchilik tarqoq holda bo‘lib, integratsiyalashgan huquqiy baza mavjud emas. Shu sababli Favqulodda vaziyatlar kodeksi ishlab chiqilib, barcha qonun hujjatlarini yagona me’yoriy hujjatga birlashtirish lozim.

b) O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlarni boshqarish sohasidagi qonunchilik hali ham xalqaro standartlarga to‘liq moslashmagan. Buning uchun BMTning Sendai Framework for Disaster Risk Reduction (2015–2030) xalqaro strategiyasi asosida xatarlarni kamaytirish dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, Yaponiyaning “Disaster Countermeasures Basic Act” (1961) qonunchiligidagi davlat va mahalliy hokimiyat o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini milliy tizimga joriy qilish kerak.

[4] Disaster Countermeasures Basic Act // https://www.adrc.asia/documents/-law.
[5] https://www.oig.dhs.gov/sites/default/files/assets/Mgmt/OIG_0402_Dec03.pdf.

Ikkinchidan, texnik va infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar:

a) AQShning FEMA va NEMIS tajribasidan kelib chiqib, yaxlit raqamli monitoring platformasini ishlab chiqish;

b) Geoinformatsion tizimlar, sun’iy intellekt (AI) va dronlar yordamida favqulodda vaziyatlarni tezkor kuzatish va tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish;

d) “Smart Emergency Management System” platformasini ishlab chiqish va barcha davlat organlarini ushbu tizimga integratsiya qilish;

e) Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiyani zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta’minlash;

f) Yaponiyaning Kobe Framework dasturi doirasidagi favqulodda vaziyatlarga javob berish tizimi kabi O‘zbekistonda FVV va Milliy gvardiya uchun maxsus texnika va qutqaruv jihozlarini modernizatsiya qilish;

g) Yevropa ittifoqi va Yaponiya bilan hamkorlikda qutqaruv texnikalarini import qilish hamda mahalliy sharoitga moslashtirish;

h) suv toshqinlarining oldini olish maqsadida irrigatsiya va sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish va BMT hamda Jahon banki loyihalari asosida moliyalashtirish lozim.



Uchinchidan, kadrlar tayyorlash va xalqaro tajriba bilan integratsiyalash muammolarini hal qilish:

a) favqulodda vaziyatlar tizimida ishlovchi xodimlarning malakasini oshirish uchun Yaponiya, AQSh va Germaniya kabi davlatlar bilan hamkorlikda o‘quv dasturlarini tashkil etish;

b) Fransiyaning “Sécurité Civile” tizimi asosida harbiy xizmatchilar va favqulodda vaziyatlarda ishlovchi xodimlar uchun maxsus kurslarni tashkil etish;

d) Yevropa ittifoqi (UCPM) tajribasi asosida FVV va Milliy gvardiya o‘rtasida yagona trening markazini yaratish;

e) favqulodda vaziyatlarga javob berish bo‘yicha simulyatsiya mashg‘ulotlarini joriy qilish;

f) AQShdagi FEMA akademiyasi kabi O‘zbekistonda ham Favqulodda vaziyatlar va xavflarni boshqarish institutini tashkil etish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish lozimki, yuqorida ilgari surilgan takliflarni amalga oshirish O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlar tizimining xalqaro standartlarga mos takomillashishiga xizmat qiladi.

Yerpolat TLEUBAEV,
Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi